



SHIFOKOR VA BEMOR MUNOSABATLARINING ASOSIY MEZONLARI

A.Xolboyev

Toshkent tibbiyot universiteti, Toshkent shahri, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17312119>

Ma'lumki, tibbiyot deontologiyasi - tibbiyot xodimlarining kasbga aloqador etikasi, dori-darmon, umuman davoning ta'sirini oshirishga qaratilgan odob-axloq, madaniyat mezonlarining biridir. Zero, har bir kasbning o'z normalari, qoidalari va soha vakillarining kasbiy deontologiyasi mavjud. Deontologiya, ya'ni kishining xulqi, odobi haqidagi tushuncha XVI asrning boshlarida ingliz faylasufi va iqtisodchisi I.Bentam tomonidan ilgari surilgan va kasbga kiritilgan. Tibbiyot deontologiyasiga oid ma'lumotlar uzoq tarixga ega. Aslida, tibbiyot deontologiyasi keng falsafiy mazmunga ega bo'lib, bir qancha yo'nalishlardan iborat:

- shifokor bilan bemor o'rtasidagi;
- shifokor bilan bemorning yaqin kishilari o'rtasidagi munosabat;
- shifokorning hamkasblari bilan munosabati va h.k.

Har bir kasbning o'ziga xos tamoyillari va qonuniyatlari mavjud. Bular orasida shifokor kasbiga qo'yilgan talab va majmuriyatlar o'zining jiddiyligi va mas'uliyati bilan ajralib turadi. Shifokor nafaqat o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishi lozim balki u mohir psixolog, notiqlik san'atidan ham xabardor bo'lishi lozim. Shuningdek, har bir bemorning shaxsiga va kasalligiga oid ma'lumotlarni sir saqlashi bilan ham xarakterlidir. Shifokor oldidagi yana bir mas'uliyatlardan biri bemorni nafaqat hayotga qaytarish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish balki bemorlarni hayotga, yashashga bo'lgan umidini yanada rivojlantirishdir. Bemorning o'ziga nisbatan ishonch, umid, intilish, hayot ne'matlaridan bahrpamand bo'lish istagini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shifokor va bemor o'rtasida bir nechta aloqa modellari mavjud:

- axborot (impassiv shifokor, butunlay mustaqil bemor);
- izohlovchi (ishontiruvchi shifokor);
- maslahat (ishonch va o'zaro kelishuv);
- paternalistik (vasiy vrachi)

T.Parsons shifokor va bemor uchun ideal rol turlarini ishlab chiqdi. Garchi shifokor va bemor, uning fikriga ko'ra, umumiy maqsad - ikkinchisining sog'lig'ini tiklash bilan bog'liq bo'lsa-da, ularning vazifalari va imtiyozlari keskin farqlanadi. Bemor: 1) sizning ahvolingizni bemor sifatida rag'batlantirish; 2) potentsial yordam so'rash; 3) shifokorga ishonish; 4) odatdagi vazifalardan va ularning holati uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

Shifokorning roli quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- 1) o'z manfaati uchun emas, balki bemorning farovonligi uchun harakat qilish;
- 2) har qanday shaxsiy munosabatlar va guruhga bog'liqlik bilan emas, balki kasbiy xulq-atvor qoidalarini (universalizm) boshqarishi kerak;
- 3) kasallikni nazorat qilish maqsadida kasbiy bilimlaridan maksimal darajada foydalanish (funktsional o'ziga xoslik);
- 4) obyektiv va hissiy jihatdan uzilib qolish (samarali betaraflik). Albatta, bu yerda sotsiologiyadan ko'ra ko'proq psixologiya mavjud;
- 5) bemorni sog'lom turmush tarziga qaytarishda shifokordan psixologik jihatdan bilim va malakani talab etadi;



6) har qanday vaziyatda ham bemor ruhiyatini ko'tara olish, ishontirish ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, shifokor nafaqat o'z sohasining yetuk mutaxassisi balki kasbiy deontologiyani ham o'zlashtirmog'i va bunga amal qilishi talab etiladi. Zero tibbiyot mas'uliyatni, tartib-intizomni, xushyorlikni, bemor bilan o'zaro munosabatda odob-axloq normalariga rioya etishni talab qiladi.